

## **Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

2025- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### **I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi**

2025- yil yanvar-fevral oylaridada labki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **3 110,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilmos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **520,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **2 590,2** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **113,6 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (**1 736,6** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **306,7** ming so'mga yoki **7,0 %** ga o'sib, **2 043,3** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 371,8** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiyligi **76,2 %** ini, jumladan, **47,5 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

### **II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi**

<sup>1</sup>2024- yil yanvar-fevral oylari hajmi va 2025- yil yanvar-fevral oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagiasosiy ko'rsatkichlari  
2025- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrdso'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Jizzax viloyati<sup>2</sup></b>	<b>3 110,9</b>	<b>100,0</b>	<b>109,2</b>
Jizzax shahri	1 013,2	32,6	104,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	36,0	1,1	113,0
Baxmal	149,1	4,8	115,7
G'allaorol	161,9	5,2	110,0
Sharof Rashidov	269,9	8,7	112,9
Do'stlik	52,6	1,7	106,2
Zomin	156,1	5,0	110,7
Zarbdor	64,5	2,1	109,8
Mirzacho'l	43,5	1,4	103,2
Zafarobod	33,0	1,1	110,4
Paxtakor	73,4	2,4	107,1
Forish	90,3	2,9	111,8
Yangiobod	14,4	0,4	129,3

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Jizzax shahrining yuqori ulushi (**32,6 %**) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Jizzaxning eng yirik shahridir. Poytaxtdadavlatidoralari, xalqarotashkilotlar, banklarvayirikkompaniyalarjamlanganbo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Jizzax rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

### **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida savdo xizmatlari **12,4 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **2,9** bandni tashkil etdi), yashash

<sup>2</sup>Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



va ovqatlanish xizmatlari **10,8** % ga (o'sishiga hissasi **2,7** band), transport xizmatlari **10,9** % ga (o'sishiga hissasi **1,3** band), moliyaviy xizmatlar **7,0** % ga (o'sishiga hissasi **1,1** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **14,5** % ga (o'sishiga qo'shan hissasi **0,6** band) va shaxsiy xizmatlar **7,5** % ga (o'sishiga hissasi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)**

	Hajmi, mlrdso'm		O'sish sur'ati, %
	2024-y.	2025-y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 590,2</b>	<b>3 110,9</b>	<b>109,2</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	98,8	124,2	114,5
moliyaviy xizmatlar	421,6	464,4	107,0
transport xizmatlari	304,0	380,5	110,9
<i>shu jumladan: avtovtransport xizmatlari</i>	<i>293,4</i>	<i>366,2</i>	<i>110,6</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	641,7	778,3	110,8
savdo xizmatlari	613,7	728,2	112,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	40,4	46,4	104,3
ta'lif sohasidagi xizmatlar	85,5	82,4	80,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	49,9	63,2	104,9
ijara xizmatlari	28,4	39,1	106,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	59,5	67,7	105,5
shaxsiy xizmatlar	58,6	76,1	107,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	25,9	34,0	101,2
boshqa xizmatlar	162,2	226,4	111,8


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,0%**, savdo xizmatlari **23,4%**, moliyaviy xizmatlar **14,9%**, transport xizmatlari **12,2%**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0%**, ta'lif sohasidagi xizmatlar esa **2,7%** ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **24,8** foiz, savdo xizmatlari **23,7** foiz, moliyaviy xizmatlar **16,3** foiz, transport xizmatlari **11,7** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,8** foiz, ta'lif sohasidagi xizmatlar esa **3,3** foiz ulushni tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2025-yil yanvar-fevral, %**



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdag'i xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **71,3** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **16,2** foizga o'sgan.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **5,4** mlrd so'mga yoki **27,4** foizga o'sishi kuzatilgan.

**Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi**





2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avtotransporti xizmatlari (110,6 %)**, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (125,8 %)**, **pochta va kuryerlik (107,4 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyoohlар oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiyligi ulushi **94,5 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **110,8 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quydagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot(ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdag'i tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** bu- xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yichahisoblangan to'lovlarqo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi.Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarни amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlaribo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining bat afsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

